



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 18-may, payshanba,
59 (23.780)-son

**KUN
HIKMATI**

Insoniyatni
ulug'lagan kishi
shaxsni, shaxsni
ulug'lagan esa
insoniyatni ulug'lay
oladi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YEVROPA TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKI BOSHQARUVCHILAR KENGASHI YIG'ILISHIDAGI NUTQI



**Hurmatli Reno-Basso xonim!
Hurmatli Brunner janoblari!
Xorijiy hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va
diplomatik korpus vakillari!**

Xonimlar va janoblari!
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining bu yilgi yig'ilishi qadimiy va betakror Samarqandda o'tkazilayotganini biz mamlakatimizga, islohotlarimizga yuksak ishonch va e'tibor ifodasi sifatida qabul qilamiz.

O'zbekistonga xush kelibsiz!
Bugungi anjumanni o'tkazish uchun aynan Samarqand shahri tanlangani chuqur ramziy ma'noga ega, deb o'ylayman. Azal-azaldan Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan ushbu azim shahar Sharq va G'arb, Shimol va Janubni o'zaro bog'laydigan, Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarini o'rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnologik almashuvlar makoni bo'lib xizmat qilgan.

Bu zaminda turli sivilizatsiyalar o'rtasida yuksak muloqot madaniyati shakllangani bilan biz doimo faxrlanib kelamiz.

Dunyoning barcha mintaqalaridan 2500 dan ortiq mehmonlar ishtirok etayotgan bugungi anjuman ana shu ezgu an'analarni yangi bosqichda davom ettirib, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik ko'prigini mustahkamlaydi, deb ishonaman.

Tobora kuchayib borayotgan hozirgi geosiyosiy ziddiyatlar davrida bunday ochiq va yaqin muloqotlar, do'stona aloqalarni yanada kengaytirish barcha mamlakatlar uchun albatta, nihoyatda zarur. Shu ma'noda, bugungi nufuzli anjumaning asosiy mavzusi "Barqarorlik uchun investitsiya", deb belgilangani katta ahamiyatga egadir.

Barchangiz ko'rib turib, global iqtisodiy muammolar tobora avj olmoqda. Iqlim o'zgarishi va ekologik xatarlar kuchaymoqda, tabiiy resurslar esa kamayib bormoqda. Bunday murakkab vaziyatda bugungi va kelgusi avlodlar munosib hayot kechirishi uchun yangi texnologiya va loyihalarga ko'proq investitsiyalar kiritish talab etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu muhim anjuman davlatlar o'rtasidagi ko'p qirrali va uzoq muddatli aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi, iqtisodiyotimizni rivoj uchun sarmoyalarni yanada ko'paytiradi, barcha a'zo mamlakatlar taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shadi.

Aziz do'stlar!
O'zbekistonda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining bunday formatdagi yig'ilishi roppa-rosa 20 yil oldin bo'lib o'tgan edi. Bugungi anjumanda yangi mehmonlar bilan birga, avvalgi yig'ilishda qatnashgan ishtirokchilarni ham ko'rib turibman. Shu o'rinda bir fikrni alohida ta'kidlab aytmoqchiman: Bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas.

Olti yil muqaddam boshlagan qat'iy islohotlarimiz natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, bugun siz, azizlarni mutlaqo yangi muhitda — dunyoga keng ochilayotgan, barcha sohalarda hamkorlik uchun tayyor bo'lgan Yangi O'zbekistonda qabul qilayotganimizdan g'oyat mamnunmiz.

So'nggi yillarda yurtimizda inson qadriini ulug'lash, aholi manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish va jahon bozorlariga dadil kirib borish bo'yicha salmoqli yutuqlarga erishdik, deb ayta olamiz. Jumladan, inson huquqlarini amalda eng oliy qadriyat darajasida ta'minlash maqsadida

da majburiy mehnat va bolalar mehnatiga to'liq barham berildi.

So'z va e'tiqod erkinligi, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha erishgan amaliy natijalarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda ilk bor kambag'allik mavjudligini tan oldik va uni qisqartirish uchun samarali tizim yaratdik. Bu tizim bilan davlat ko'magiga muhtoj oilalar to'liq qamrab olindi.

Shu bilan birga, qonun ustuvorligini ta'minlash, sud mustaqilligi va odil sudlov institutini mustahkamlash, xususiy mulk daxsizligini kafolatlash borasidagi islohotlarni qat'iy davom ettiryapmiz.

Aholi va tadbirkorlar manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan tizim — ma'muriy sudlar tashkil etildi. Jamiyatda korrupsiyaga erishish bo'lish muhitini shakllantirish eng ustuvor vazifalarimizdan biriga aylandi.

Xorijiy investor va hamkorlarimiz uzoq kutgan yengillik va imkoniyatlar iqtisodiy islohotlarimizda o'z aksini topmoqda.

Valyuta tizimi erkinlashtirilgani, tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha to'siqlar olib tashlangani, 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilingani natijasida tashqi savdo aylanmasi ikki karra oshdi.

Shu bilan birga, soliq yuki qariyb 2 barobar kamaygani, soliq ma'murchiligi soddalashtirildi, O'zbekistonda mintaqamizdagi eng jozibador fiskal tizim shakllangani xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Islohotlarimizga ishonch ortgani tufayli yillik xorijiy sarmoyalar hajmi 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko'paydi.

Umuman, mamlakatimizda qulay biznes muhiti yaratilgani natijasida tadbirkorlar soni 4 barobar oshdi.

Eng muhimi — siyosiy va iqtisodiy islohotlarimizni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlamoqda.

Yaqinda umumxalq referendumida qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyamizda islohotlarning ortga qaytmasligi va bardavom bo'lishi qat'iy kafolatlandi.

Bir so'z bilan aytganda, biz o'zimiz tanlagan, uzoq muddatga mo'ljallangan ochiqlik va barqaror taraqqiyot yo'lidani og'ishmasdan, yanada dadil oldingda boramiz.

Birinchisi, mamlakatimizda investitsiya va ishbarmonlik muhitini yaxshilash, investorlarga yanada qulay sharoitlar yaratishni yaxlit tizim asosida amalga oshiramiz.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi chet ellik sarmoyadorlar bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yib, o'zaro manfaatli loyihalar va uzoq muddatli strategiyalarni birgalikda ishlab chiqishda hal qiluvchi bo'g'in bo'ladi.

Hech shubhasiz, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan birga tashkil etilgan ushbu muloqot platformasi biz uchun yangi tajribalar orttirishga xizmat qiladi va qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, islohotlar jarayonida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga ko'maklashadi.

Investorlar qayerda bo'lmasin, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida tashkil etilgan "yagona darcha" orqali — 14 ta hudud, 208 ta tuman va shaharda hamda O'zbekistonning xorijdagi barcha

diplomatik vakolatxonalarida ularga zarur ko'mak va xizmatlar ko'rsatiladi.

Shuningdek, yil yakunigacha xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda tariximizda ilk bor Xalqaro tijorat sudi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchi. Biz tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat bozorlarini yanada erkinlashtirish siyosatini jadal davom ettiramiz. Jumladan, dunyodagi ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilish maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun katta qadamlar tashladik. Ushbu yo'nalishda bu yil salmoqli natijalarga erishamiz, deb ishonaman.

Uchinchi. Ortiqcha byurokratiyani qisqartirish va korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'q qilish bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning diqqat markazida bo'ladi.

Bu borada boshlangan ma'muriy islohotlarni izchil davom ettirib, inson va biznesga ko'maklashadigan, ularga sifatli xizmat ko'rsatadigan ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimini joriy etamiz.

Hurmatli bank boshqaruvchilari!

Bir fikrni ochiq aytishimiz kerak: islohotlarimizni amalga oshirish va hozirgi natijalarga erishishda xalqaro hamkorlarimizning ko'magi biz uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugun qat'iy ishonch bilan ayta olaman — O'zbekistonni barqaror rivojlantirish yo'lida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bizning strategik hamkorimizga aylandi. Ayniqsa, bankning mamlakatimizdagi loyihalar portfeli 4 milliard yevrodan oshgani, shundan 3,3 milliard yevrolik loyihalar so'nggi to'rt yilda boshlangani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

O'tgan yil yakuni bilan O'zbekiston bankning beshta eng asosiy hamkorlari qatoriga kirdi. Yillik investitsiya hajmi bo'yicha esa uning Markaziy Osiyodagi eng yirik biznes sherigiga aylandi.

Eng muhimi, bank bilan xususiy sektorni rivojlantirish borasidagi yondashuv va maqsadlarimiz ham uyg'un va hamohangdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda bank loyihalarida xususiy biznesning ulushi 55 foizga yetgani ham shundan dalolat beradi.

Ayniqsa, bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lgan "yashil energiya", ichimlik suvi, yo'l-transport infrazuzilmasi, ekologiya kabi sohalarda hamkorligimiz jadal rivojlanmoqda. Xususan, qayta tiklanadigan energiya sohasida bankning 600 million yevro mablag'lari ishtirokida yirik loyihalarni boshladik. Bunday faol hamkorligimiz iqtisodiyotimizga boshqaruvchi xorijiy investorlarni jalb etishda ham "katalizator" bo'lib xizmat qilmoqda.

Fursatdan foydalanib, bizni qo'llab kelayotgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki rahbariyati, ayniqsa, bank prezidenti Reno-Basso xonimga, bankka a'zo davlatlar hukumatlari va boshqaruvchilariga, bank bilan hamkor tashkilotlar va investorlarga, biz bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirayotgan barcha bank xodimlariga chuqur minnatdorchiilik bildiraman.

Hurmatli do'stlar!

Biz bundan buyon ham islohotlarimizni davom ettirishda rivojlanish borasidagi xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikka tayyanamiz.

Birinchidan, biz mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda faqat va faqat xususiy sektorga tayanamiz. Shu bois kelgusi taraqqiyotimiz xususiy lashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq ekanini yaxshi tushunamiz.

Bu borada korxonalaridagi davlat ulushlarini sotish, strategik kompaniyalar va yirik banklarning aksiyalarini ochiq savdoga chiqarish bo'yicha yil boshida katta marralarni oldik. Xususan, ilk bor iqtisodiyotimiz uchun strategik ahamiyatga ega 40 ta korxonani "IPO"ga olib chiqildik.

Ushbu yo'nalishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan katta dasturni amalga oshiramiz.

Birgina misol, mamlakatimizning eng yirik banklari — "Sanoat qurilish banki" va "Asaka banki"ni xususiy lashtirish bo'yicha Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan faol ish olib boryapmiz. Shu bilan birga, mamlakatimizning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, eng zamonaviy texnologiyalari bor investorlarni jalb etish bo'yicha bank bilan alohida dasturni boshladik.

Biz kambag'allikni qisqartirish bo'yicha oldimizga katta marralarni qo'ydik. Ularga erishish uchun tadbirkorlarga yangi-yangi imkoniyat va sharoitlar yaratamiz. Shu maqsadda kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha bank bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaat-dormiz.

(Davomi 2-sahifada) >>>



DUNYO MOLIYACHILARI NIGOHI SAMARQANDDA

Samarqandda yilning muhim tadbirlaridan biri — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishi o'tkazilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishida ishtirok etish uchun kecha Samarqand shahrida bo'ldi.

Sammit ishida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, Yevropa Komissiyasi vise-prezidenti Valdis Dombrovskis, YTTB Boshqaruvchilar kengashi raisi Magnus Brunner, xorijiy hukumatlar, yetakchi transmilliy korporatsiyalar va sanoat xoldinglari, xalqaro moliya institutlari va banklarning rahbarlari va vakillari, shuningdek, dunyoning 70 mamlakatidan iqtisodiyot, investitsiyalar, moliya va innovatsiyalar sohasi ekspertlari va tahlilchilari, fuqarolik jamiyati faollari va jurnalistlar — jami 2,5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashmoqda.



Davlatimiz rahbari YTTB Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishida nutq so'zledi. Shavkat Mirziyoyev olti yil muqaddam boshlagan qat'iy islohotlarimiz natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, dunyoga keng ochilayotgani, bugun Yangi O'zbekiston barcha sohalarda hamkorlik uchun tayyorligini bildirdi.

O'zbekistonni barqaror rivojlantirish yo'lida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bizning strategik hamkorimizga aylandi. Ayniqsa, bankning mamlakatimizdagi loyihalar portfeli 4 milliard yevrodan oshgani, shundan 3,3 milliard yevrolik loyihalar so'nggi to'rt yilda boshlangani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, — dedi davlatimiz rahbari.



Mana uch yildirki, O'zbekiston ushbu yetakchi moliyaviy institutdan jalb qilingan investitsiyalar hajmi bo'yicha mintaqada yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda Bank loyihalarining portfeli 3 milliard yevrodan oshdi, unda xususiy sektorga investitsiyalar ulushi 55 foizdan ziyodni tashkil qilmoqda. Iqtisodiyot barqarorligiga sarmoya kiritish, xalqaro savdoni rag'batlantirish, energetik xavfsizlikni ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, raqamlashtirishni jadallashtirish, moliyaviy infrazuzilmani modernizatsiya qilish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, "yashil" iqtisodiyot dasturini ilgari surish masalalari forumning markaziy mavzulari bo'ldi.

Tadbir doirasida davlatimiz rahbari xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING YEVIROPA TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKI BOSHQARUVCHILAR KENGASHI YIG'ILISHIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ikkinchidan, infratuzilma, tibbiyot, ta'lim, transport, ekologiya kabi davlat ixtiyorida sohalarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish.

Bu borada bank bilan mamlakatimizda ilk bor Naman-ganda ichimlik suvi tarmog'ini boshqarish, Toshkent - Samarqand zamonaviy magistral avtomobil yo'lini qurish loyihalarini boshlayapmiz.

Salohiyati yuqori bo'lgan turizm sohasida ham davlat-xususiy sheriklikni kengaytiramiz. O'ylaymanki, sizlar Samarqandda bo'lib, mamlakatimizning turizm borasida qanday katta istiqbolga ega ekanini o'zingiz his qilib turibsiz.

Umuman, mazkur anjuman doirasida sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma, transport, energetika sohalari-da 40 dan ortiq yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalari taqdimoti o'tkaziladi. Ushbu loyihalar sizlarda katta qiziqish uyg'otishiga ishonchim komil.

Uchinchidan, "yashil iqtisodiyot", ayniqsa, "yashil energiya" sohalari jadal rivojlanish. Biz 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarish-

da qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazishni reja qilganmiz. Bu borada Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan shu yilning o'zida umumiy quvati 1,2 gigaWatt bo'lgan 3 ta yirik quyosh stansiyasi barpo etiladi.

Shu bilan birga, bugungi anjuman bo'lib o'tayotgan ko'hna Samarqand yaqinida bankning "yashil shaharlar" dasturiga kiritildi. Biz Nukus, Andijon, Buxoro va Naman-ganda kabi shaharlarimizni ham ushbu dasturga kiritishda bankning ko'magiga tayanamiz.

To'rtinchidan, biz Yangi O'zbekistonda ayollar ta-dirkorligini yanada qo'llab-quvvatlash, ularning g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyat-lar yaratishga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Bu borada bank bilan xotin-qizlar bandligini ta'min-lash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirayotgan dasturlarimiz alohida e'tiborga sazovordir. Bunday loyihalarni keskin oshirish bo'yicha bank bilan hamkorligimizni yanada kengaytiramiz.

Beshinchidan, bank bilan birga ilg'or agrotexnologiyalar, suvni tejash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yana ko'plab yangi loyihalarni amalga oshirishga tayyormiz.

Global oziq-ovqat taqchilligi bilan bog'liq muammolar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bunday loyihalar bank uchun ham, investorlar uchun ham juda foydali bo'ladi, deb hisoblayman.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Biz Markaziy Osiyoda hamkorlikni rivojlantirishni Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishlari-dan biri sifatida belgilab olganmiz.

Mintaqa davlatlari rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi va izchil sa'y-harakatimiz natijasida bugun Markaziy Osiyo yaxshi qo'shnihilik va sheriklikning yorqin namunasi-ga aylanib bormoqda. Jumladan, qo'shnilarimiz bilan iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish maqsadida biz qo'shma investitsiya fondlarini tashkil etdik, sanoat, energetika, transport va suv xo'jaligida bir qator yirik loyihalarni bosh-ladik. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xorijiy hamkorlarimiz bunday mintaqaviy loyihalarda faol ishtirok etishga taklif etamiz.

Muhtaram xonimlar va janoblari!

So'zimizning yakunida yana bir fikrni alohida ta'kidla-moqchiman: bugungi xalqaro anjuman Yevropa tiklanish

va taraqqiyot banki bilan mamlakatimiz o'rtasidagi ham-korlikni yangi pog'onaga olib chiqish uchun tarixiy imkoni-yat yaratmoqda.

Samarqandga 71 ta mamlakat hukumatlari vakillari tashrif buyurgani ham ushbu davlatlar bilan o'zaro manfaatli loyi-halarni boshlashga katta turtki berishiga aminman.

Bugungi "O'zbekiston investitsiya taqdimoti" da mam-lakatimiz biznes sohasida qanday katta imkoniyatlarga ega ekani atroflicha ko'rsatib berildi. Bundan tashqari, anju-man doirasida bo'lib o'tadigan sessiya va uchrashuvlarda sizlarga yangi loyihalar batafsil taqdim qilinadi.

Shu kunlarda anjumaning qat'iy siyosiy irodasi O'zbekistondagi yangi biznes yo'nalishlarini o'zi uchun kashf etishga ishonaman. Shu bilan birga, yurtimizning qadimiy tarixi, betakror madaniy merosi, xalqimizga xos mehmondo'stlik va ochiqko'ngillik fazilatlarini sizlarda unutil-mas taassurotlar qoldiradi, deb o'ylayman.

Barchangizga mustahkam sog'liq, faoliyatigizda katta yutuq va omadlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Tushumlar hajmi ortsa, budget salmog'i ko'payadi

17-may kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining sakson oltinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiyani Kengash kotibiyati mudiri Z.Karimov boshqardi.

Dastlab deputatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug saylov komissiyasi tarkibiga nomzodlarni tasdiqladi va bu haqdagi qaror Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etilishi belgilandi.

So'ngra viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalardan foydalanish, jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari olib qo'yilishiga ruxsat berish, jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha taqdimot materiallarini ko'rib chiqish va mulkdorlar bilan ochiq muhokama o'tkazishga ruxsat berish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Deputatlar davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi qarori bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari A.Shukurovning hisobotini tingladilar.

Qayd etilishicha, 2023-yilda viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK buyurtmachiligida 34 ta umumta'lim maktabi, 480 o'rinni 2 ta ijod va ixtisoslashtirilgan maktab, 25 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 5 ta sog'liqni saqlash, 5 ta oliy ta'lim muassasalari, bitta jismoniy tarbiya va sport, bitta madaniyat, 3 ta turizm ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari olib borilishi belgilangan. Shu paytgacha 3 ta obyektga qurilish-montaj ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirilgan.

Sessiya kun tartibidagi keyingi masala - viloyatda 2023-yilning I choragida davlat va mahalliy budget daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i B.Mirzayev hisobot berdi.

Birinch chorakda umumiy daromadlar prognoz rejasini ortig'i bilan bajarildi, dedi B.Mirzayev. - Jumladan, tushumlar bo'yicha foyda solig'i 105 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 101 foiz, jismoniy shaxslar yer va mulk

solig'i 160 foiz bo'ldi. Korxonada va tashkilotlarda ishlovchi xodimlardan undirilgan daromad solig'ining 71 foizi, ya'ni 242,3 milliard so'mi budget tashkilotlarida ishlovchi xodimlar hissasiga to'g'ri keldi. Hisobot davrida viloyatdagi 2091 korxonada joriy yilning I choragida amalga oshirilgan tovar-aylanmadan budgetga bir so'm ham soliq to'lamagan. 2565 ta korxonada tomondan ishchi-xodimlarga belgilangan me'yorlarga nisbatan kam ish haqi hisoblanganligi oqibatida 2,5 milliard so'm daromad solig'i undirilmagan. 1768 ta korxonada xodimlar soni hisobotlarda ko'rsatilmagan. 797 ta korxonada atigi 1 nafardan, 331 ta korxonada 2 nafardan ishchiga ish haqi hisoblangan holda daromad solig'i to'langan, xolos.

Shuningdek, sessiyada xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi va Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2021-2022-yillardagi faoliyati yuzasidan jamoat fondi direktori D.Malikovning hisoboti ko'rib chiqildi.

Viloyatda 2024-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritiladigan loyihalarning taqdimoti hamda Kengashning 2022-yil 4-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mahalla infratuzilmasini rivojlantirish Dasturi doirasida amalga oshiriladigan ishlar manzilli ro'yatini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qarorlar tasdiqlandi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi.

Keyingi yillarda har qarich yerdan omilkorlik bilan foydalanishga qaratilayotgan e'tibor tomorqa xo'jaligini yanada yuksaltirishda muhim omil bo'lyapti. Buni Payariq tumanidagi mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, tumandagi Zarafshon mahallasida tomorqasidan unumli foydalanib, daromad topayotgan xonadonlar ko'p.

Tomorqachining dasturxonini to'kin, ro'zg'ori but

- Avval tomorqachining turli sabzavotlar ekib, ro'zg'orimizga yetarli hosil olib turgandik, - deydi mahallaning Rivoj qishlog'ida yashovchi Zilola Rajabova. - Ammo bu faqat yoz mavsumidagina bo'lib, kelgusi pishiqchilik bozordan sotib olishga to'g'ri kelardi. Yerdan unumli foydalanish maqsadida issiqxona tashkil qilmoqchi edik. Biroq uni qurishga yetarli mablag'imiz yo'q edi. Mahalla raisining maslahati bilan imtiyozli kredit oldik. 30 million so'm kredit mablag'i bilan xo'jaligimizda ikkita to'rt sotixli issiqxona quridik.

Tomorqadagi bu issiqxona bugun ushbu xonadonning daromad manbasi-ga aylangan. Ular tomorqadan daromad olish bilan birga, aholi dasturxonining qishda ham yoz mahsulotlari bilan ta'minlanishiga hissa qo'shyapti. - Ismaloq, jag'-jag' ekib, qish kunlarida ham daromad qildik, - deydi Zilola opa. - Bahor kelishi bilan birinchi ekinga bodring ekdik. Ayni kunda, kunora bozorga 100-150 kilogramm bodring chiqaramiz. Dehqonchilik ilmidan ozgina xabar-dor bo'lsangiz yetarli. Ortiqcha mehnati yo'q, muhimi, hosil ham uvol bo'lmaydi. Keragini ro'zg'orga ishlatamiz, ortganini bozorga sotamiz. Ro'zg'orimizning

gan Qalandar qishlog'ida yashovchi Nilufar Toshboltaeva ham yaratilayotgan imtiyozlardan unumli foydalanayotgan tomorqachi.

- Shu mo'jazgina issiqxona ro'zg'orimizga baraka keltirdi, - deydi N.Toshboltaeva. - Boshlanishiga 20 million so'm imtiyozli kredit mablag'i yetarli bo'ldi. Bir marta emas, oilamizda kimning bo'sh vaqti bo'lsa, issiqxonada ishlaydi. Birinchi ekin - pomidorning maslahati bilan imtiyozli kredit oldik. 30 million so'm kredit mablag'i bilan xo'jaligimizda ikkita to'rt sotixli issiqxona quridik.

Tomorqadagi bu issiqxona bugun ushbu xonadonning daromad manbasi-ga aylangan. Ular tomorqadan daromad olish bilan birga, aholi dasturxonining qishda ham yoz mahsulotlari bilan ta'minlanishiga hissa qo'shyapti.

- Mahallamiz hududida birorta sanoat korxonasi yo'q, - deydi Zarafshon mahallasi raisi Sobir Rahimov. - Aholining asosiy daromadi - tomorqachilikdan. Shu sababli mahalla aholisiga ajratilgan imtiyozli kreditlarning asosiy qismini tomorqachilikka yo'naltiryapmiz. Xususan, joriy yil boshidan buyon hokim yordamchisi ko'magi bilan ehtiyojmand oilalar hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanishni maqsad qilgan fuqarolarga 356 million so'm imtiyozli kredit mablag'larini ajratildi. Shu mablag'lar hisobidan 6 ta issiqxona tashkil qilindi.

Mahalla tomorqalarini kuzata turib, mavjud oltita qishloqning barcha xonadonlarida bir qarich ham yer bo'sh qolmaganiga guvoh bo'ldik. Mahalladagi mingdan ortiq xonadonning asosiy qismida 5 sotixdan 15-20 sotixgacha bo'lgan maydonlarda kartoshka yetishtirilyapti.

- Yonimizdan oqib o'tadigan Oqdaryo suvi sabab hududda doimiy salqin shabada esib turadi, - deydi tajribali dehqon Shavkat Oripov. - Bu kartoshka uchun ayni muddao. Azaldan bu yerda kartoshkadan mo'l hosil olingan. 10 sotix yerga kartoshka ekkanman. Hozir ayni gulga kirgan payti. Besh tonna hosil chamalab turibman. Yil bo'yi shu yerga ikki marta kartoshka ekib olaman. Daromadi ham shunga yarasha.

Albatta, dehqonchilikda faqat daromadni hisoblash noto'g'ri. Yerni tayyorlab, urug'ni qadab, mo'l hosil olguncha ozmuncha mehnat talab qilinmaydi. Ammo dehqonchilikning hadisini olgan zarafshonliklar kaftdek yerdan ham unumli foydalanayapti, mehnatlarining rohatini ko'ryapti.

Sulaymon MARDIYEV, Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Ekologik huquqiy tartib o'rnatishda o'rni bor

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olishda boshqalar qatori ichki ishlar organlarining ham vazifasi bor.

Xususan, profilaktika inspektorlari mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga ekologik-huquqiy tartib o'rnatish, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun talablari bajarilishini ta'minlash hamda ekologik-profilaktik huquqiy nazorat ishlarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

YPX xodimlari avtotransportdan foydalanganda atmosfera havosi ifloslanishini kamaytirish hamda avtotransport shovqinining normal holatda bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.


Tergov bo'linmalarida amaldagi qonunlarimiz asosida ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashadilar, ularning oldini olishni va sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklarning fosh etilishini ta'minlaydi.

Ya'ni, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ichida ichki ishlar organlariga ekologik muammolarni o'z doirasida hal etishda katta mas'uliyat yuklangan va ularning sohadagi faoliyati ko'p qirrali.

Bundan tashqari, Ichki ishlar vazirligi Milliy gvardiya va Davlat ekologiya qo'mitasi bilan birgalikda doimiy ravishda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari ijrosi so'zsiz ta'minlanishini nazorat qilishda o'zaro hamkorlik o'rnatishi hamda qo'shma profilaktik tadbirlarni o'tkazishi mumkin.

Ichki ishlar organlari va milliy gvardiya bo'linmalarining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish yuzasidan tegishli qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Bu esa ekologik huquqbuzarlik borasida ichki ishlar organlari xodimlarining vakolat va vazifalari yanada kengayishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Salohiddin NARZIYEV, IIV akademiyasi kursanti.



2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatdagi barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 67,8 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar-martiga nisbatan 6,2 foizga ko'p) yetishtirildi.

Viloyat statistika boshqarmasi.



kamini butlab, qo'shimcha daromadga ham ega bo'lyapmiz.

Bahordayoq bodring, pomidor kabi mahsulotlarning bozorlarimizda serob bo'layotganida bu kabi omilkor dehqonlarning o'rni bor. Tomorqasida besh sotixli issiqxona tashkil qilib, pomidor yetishtirayot-

Samarqand stilistika maktabi asoschisi

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Rahmatulla Qo'ng'urovich Qo'ng'urov hayot bo'lganida bu yil 90 yoshga to'lardi.

Rahmatulla Qo'ng'urov 1933-yilda Forish tumanidagi Nurak qishlog'ida tug'ilgan. 1956-yilda Samarqand davlat universiteti filologiya fakultetini tamomlab, o'zbek tilshunosligi kafedrasida aspirant bo'lgan. 1962-yilda professor Ulug' Turunov rahbarligida nomzodlik, 1982-yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. 1963-1971-yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasining o'qituvchisi, katta o'qituvchisi, dotsenti, professori lavozimlarida, 1971-yildan umrining oxirigacha – 23 yil davomida shu kafedra mudiri vazifasida ishlagan edi.

Ustozning ilmiy pedagogik faoliyati ko'p qirrali bo'lib, yaratgan asarlari soni 300 dan ortiq va tadqiqotlari o'zbek tilshunosligining deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. Olim "O'zbek tilida tasviriy so'zlar" (1968), "O'zbek tili grammatikasi" (1975), "O'zbek tilida o'zgaraydigan so'zlar" (1978, 1980) kabi monografiyalari, "O'zbek tilining chap-pa lug'ati" (1968), "O'zbek tilining morfem lug'ati" (1977), "Zulfiya poeziyasi tilining lug'ati" (1981) kabi leksikografik ishlar muallifi va hammuallifidir.

R.Qo'ng'urov ilmiy faoliyatida o'zbek tili stilistikasi muammolari alohida o'rin tutadi. Olim turli darajadagi anjumanlarda mavzuga oid dolzarb masalalarni ko'tarib chiqdi. "O'zbek tili stilistikasida ocherklar" (1975), "O'zbek tilining tasviriy vositalari" (1977), "Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari" (1980), "O'zbek tili stilistikasi" (1983), "O'zbek tilining funksional stillari" (1984), "Nutq madaniyati asoslari" (1984, 1985, 1986), "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" (1992), "Epistolyar janrning tuzilishi va uning ayrim til xususiyatlari" (1992) kabi monografiyalari, darsliklari va o'quv qo'llanmalarida stilistikaning muhim masalalari o'rtaga qo'yildi va yechimini topdi. Hayoti davomida 10 ga yaqin fan doktori va fan nomzodlari tayyorladi, 14 ta dissertatsiya ishiga rasmiy opponentlik, 30 ga yaqin to'plamga mas'ul muharrirlik qildi va bu xizmatlari bilan Samarqand stilistika maktabiga asos soldi. Hozirda olimning ishlari shogirdlari tomonidan davom ettirilmoqda.

Tilshunoslikning dolzarb, murakkab, keng ko'lami yo'nalishi - bu til birligi imkoniyatlarining nutqda namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish, tadqiq etish yo'nalishidir.

Har bir til birligining u yoki bu nutq turida, matnda qo'llanish xususiyatlari, imkoniyatlari, xoslanishlari, tovlanishlari har xilgina bo'lib

qolmay, ulardagi ifodalar ham har xildir. Bundan tashqari, nutq sharoitlarida ana shu birlikning tilda hali ochilmagan qirralari-imkoniyatlari ham topilib qolishi mumkin. Buning uchun esa ana shu birlikning nutqda namoyon bo'lish imkoniyatlarini jiddiy tadqiq etish, ayniqsa, uslublararo qo'llanishidagi o'ziga xosliklarni, badiiylikni ta'minlashdagi jihatlarni tadqiq qilish, belgilash lozim bo'ladi. Bu narsani esa, asosan, stilistikaga oid jiddiy tadqiqotlar amalga oshiradi.

Olim o'zbek tilshunosligining stilistika sohasi rivojiga o'zining "O'zbek tilidagi otlarda shakl yasovchi morfemalarning semantik-stilistik xususiyatlari" mavzusida yoqlagan doktorlik dissertatsiyasi bilan katta hissa qo'shdi. Bundan tashqari, uning stilistikaga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari mavjud.

– Ustoz tilshunos olim o'z ilmiy-pedagogik faoliyatida ko'proq grammatika, morfologik uslubiyat, lug'atshunoslik kabi masalalar bilan shug'ullangan bo'lsa-da, talabalik yillaridan qo'lingan badiiy asar tili, uning o'ziga xos leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini tahlil etar ekan, badiiy nutq uslubida keng qo'llangan frazeologizmlar ham olim e'tiboridan chetda qolmagan edi, – deydi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida mudiri Shavkat Mahmadiyev. – Masalan, domlining talabalik yillarida e'lon qilingan dastlabki maqolasi "Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana" asarining leksik va stilistik xususiyatlari" deb nomlangan edi. Bu maqolada bo'lajak olim "Shohi so'zana" komediyasi matnidagi "yo'ldan urmoq", "ko'zi o'tmaslik", "ko'ngili joyiga tushmoq", "boshini aylantirmoq", "gap bo'lmoq" singari frazeologizmlar tahliliga ham e'tibor qilgan edi. Ikkinchi ilmiy maqolasi esa "Kechirilmas gunohlar" pesasining til xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu maqolada ham pesada qo'llangan bir qancha frazeologizmlar funksional-uslubiy jihatdan o'rganilgan edi.

R.Qo'ng'urov o'zbek tilining tasviriy vositalarini, sintaktik figuralarni maxsus monografiyalarda, o'quv qo'llanmalarida ancha chuqur yoritgan olimlarimizdan biri edi. Uning "O'zbek tilining tasviriy vositalari" (1977), "O'zbek tili stilistikasi" (1983), "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" (1992) nomli ishlarida metafora, metonimiya, sifatlash, o'xshatish, perifraza, sarkazm, ironiya, takror singari yigirmadan ortiq tasviriy vositalarning ifodalaniş usullari izchil yoritilgan edi.

R.Qo'ng'urov o'zining hamkorlikda yaratilgan "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasida matn tahlilida grammatik, leksik vositalar bilan birga frazeologizmlarni ham inobatga olish zarurligiga alohida e'tibor qaratadi. Shunisi muhimki, ana shu asar-



ning dramaturg Komil Yashin asarlari tahliliga bag'ishlangan qismi bevosita R.Qo'ng'urov qalamiga mansubdir. Ana shu qismda Komil Yashin dramalarida qo'llangan "arra qilmoq", "bahri dili ochilmoq", "dili qora", "dam solmoq", "gapni kalta qilmoq", "yo'lga solmoq", "yo'ldan toymoq", "kulini ko'kka sovurmoq", "ko'zi tushmoq", "ko'zi qonga to'lmoq", "juftakni urmoq", "oshig'i olchi", "og'iz-burun o'pishmoq" singari oltmishdan ortiq iboralar alifbo tartibida keltirilib, ularning barchasi ma'no jihatdan izohlangan hamda ularning dramatik asarlar matnida bajargan uslubiy vazifalari haqida muhim fikr-mulohazalar bildirilgan.

XX asrning 60-yillarida tilshunos olim R.Qo'ng'urov toponimiya masalasi bilan jiddiy shug'ullanishga kirishdi, hatto domlining dastlab tanlagan doktorlik ishi mavzui ham "O'zbekiston toponimikasi" deb atalardi. 1964-1965-yillarda R.Qo'ng'urov SamDU filologiya fakulteti talabalari ishtirokida Nurota, Qo'shrabot tumanlariga dastlabki toponimik ekspeditsiyalarni uyushtirdi.

R.Qo'ng'urovning O'zbekiston toponimiyasini o'rganish sohasidagi ishlari keyinchalik uning shogirdlari T.Rahmatov, Y.Xo'jamberdiyev, N.Begaliyev kabilar tomonidan davom ettirildi.

Ustoz Rahmatulla Qo'ng'urov tamal toshini qo'ygan Samarqand ilmiy stilistika maktabida bugungi kunda bir qancha yosh olimlar o'zbek stilistikasi sohasini jiddiy o'rganishga kirishgan va bu borada doimiy ravishda ilmiy izlanishlar, amaliy tadqiqotlar olib borishmoqda.

Suyun KARIMOV,
professor,
Azamat PARDAYEV,
Umida RASHIDOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchilari.

Inson o'zidan yaxshi nom qoldirish uchun umrining oxiriga qadar fe'l-atvorini bir xil tutmog'i lozim. Ya'ni, faqat halollik, oqillik va samimiyat bilan yashamog'i kerak. Shuning uchun ham ko'pchilik bu borada "marra"ga yetolmay qoladi yoki kibrga beriladi. Ammo Abduholiq aka boshidan nimaiki tashvishlar, og'ir kunlar o'tmasin, ana shunday saodatga erishgan inson. Axir ikkita tunda, bitta viloyatda birinchi rahbar, yana birida kotib bo'lish, Ikkinchi jahon urushi jangohlarida qatnashish, pirovardida Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo'lish, o'z davrida salohiyatga intilgan barcha ziyoliga ham nasib etavermagan.

Elga xizmat qilmoq saodat

Jamoat va davlat arbobi Abduholiq Karimovni eslab

A.Karimov bunday martabaga omad bilan erishgan emas. G'allaorolning chekka Gadoy qishlog'idan kelgan o'spirin Samarqandda ta'lim olib, yana qishlog'iga qaytib, o'qituvchilik qildi, yoshlar tashkilotlarida deyarli barcha bosqichlarni bosib o'tdi. Shu sababli urushdan keyin hayotda toblangan yigit barcha yumushlarda o'zini ko'rsata oldi. Asta-sekin tuman ijroqo'mi raisi va G'allaorol tuman birinchi rahbari bo'ldi.

Men Abduholiq aka bilan 1968-yil mart oyida ko'rishganman. U kishi Samarqand viloyat partiya qo'mitasida qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha kotib lavozimida ishlardi, men esa xo'jalikda iqtisodchi edim. Xullas, olib borayotgan ishim ma'qul tushdi shekilli, meni viloyat partiya qo'mitasiga instruktorlikka taklif qilishdi. Abduholiq aka bilan samimiy suhbatdan so'ng birinchi rahbar S.Usmonov buyrug'i bilan ish boshlaganman.

Abduholiq aka urush ko'rganligi, barcha qiyinchiliklarni mehnat bilan yengib o'tganligi uchunmi, har bir masalaga bosiqlik va oqilona yondashardi. Ayniqsa, qishloq xo'jalik xodimlari bilan dildan suhbatlashib, ularning mulohazalarini erinmasdan eshitardi. Xususan, Samarqandda birinchi kotibning tashabbusi bilan paxtachilikni kiritilgan "Dala daftari" aynan A.Karimovning qat'iyati, talabchanligi va ishga ijodiy yondashuvi tufayli katta samara berdi. O'sha paytiyoq obkom byurosiga "Jamoat va shaxsiy xo'jalikdan kolxozchilar manfaatdorligining uzviy bog'liqligi" to'g'risidagi masalaning kiritilishi ham u kishining oqilona ish yuritganidan dalolatdir. Abduholiq aka Surxondaryo viloyatiga birinchi rahbarlikka tayinlangach, 1977-yilda ko'klam qurg'oqchil keldi, suvni tejab-tergash sohada birinchi vazifaga aylandi. Ana shunday paytda viloyat birinchi rahbari Surxondaryo sharoitida intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, ishni oqilona rejalashtirish orqali suvni tejashda chinakam tajriba yaratdi. Bu harakat Markaz-qo'm tomonidan ham ma'qullandi va o'z samarasini berdi.

Binobarin, A.Karimov Surxondaryoda ishlagan chog'ida O'zbekiston va Afg'oniston bog'lovchi Xayraton temiryo'l ko'prigi qurilishida ham bosh-qosh bo'lgan. Bundan tashqari, jamoa xo'jaliklarida pudrat va xo'jalik hisobini yoritishni joriy etgan.



A.Karimov ham "paxta ishi" girdobiga tashlangan hamyurtlarimizdan biri. Hamma ishlar tinchib ketgach, bu yo'lda tuhatga uchragan kishilar oqlangach, Samarqandda ustoz bilan suhbatda bo'ldik. U kishi qamoqdagi noqonuniy harakat va iddaolar, oila va farzandlar taqdiri bilan qo'rqitish, birovlariga noto'g'ri guvohlik berishga majburlash kabi holatlardan o'tganini juda katta alam va iztiroblar bilan aytib bergandi. U or va g'ururi, halolligi tufayli bu chig'irliqlardan omon chiqdi, vijdoniga qarshi ish tutmadi. Shuning uchun ham qamoqdan kelgandan so'ng nafaqat G'allaorol xalqi, minglab xatirchiliklar, samarqandliklar, surxondaryoliklar otaxoniga yuksak hurmat ko'rsatishdi. Qolaversa, Mehnat qahramoni, mamlakat Oliy kengashi deputati, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi unvonlari sohibi birga ishlash chog'idayoq ularning mehriga sazovor bo'lib ulgurgan edi.

Agar hayot bo'lganida Abduholiq Karimov yuz yoshga to'lgan bo'lardi. Lekin fidoyilikdan, halollikdan iborat bu umr yana ko'p yillar boqiy turadi. Negaki, otaxonning ezgu ishlari shogirdlari tomonidan davom ettirilmoqda, ma'rifatli sulola vakillari xalqqa Abduholiq akaga munosib tarzda xizmat qilmoqdalar. Binobarin, elga chinakamiga xizmat qilgan inson doimo ana shunday saodatga musharraf bo'lg'ay.

Abdushukur MUHAMMADQULOV.



Asia Triathlon Cup

Samarqand 2023

SAMARQAND TRIATLON BO'YICHA XALQARO MUSOBAQALARGA MEZBONLIK QILADI

9-iyun kuni O'zbekiston tarixida birinchi marta "Paratriatlon bo'yicha Osiyo chempionati 2023, Samarqand" musobaqalari bo'lib o'tadi.

Ushbu nufuzli tadbir Respublikani sport olamida yangi bosqichga olib chiqadi va jahon triatlon reytingida mamlakatga qo'shimcha ball olib keladi. Chempionatda dunyo bo'ylab 80 nafar sportchi qatnashadi. Shu jumladan, 9 toifa: jismoniy cheklovlar va ko'rish imkoniyati buzilgan sportchilar, juftlik sprint masofasida (750 metr masofaga suzish, 20 kilometr velosiped poygasi va 5 kilometr yugurish) kuch sinashadi.

10-iyun kuni "Triatlon bo'yicha Osiyo Kubogi 2023, Samarqand" bellashuvlari o'tkaziladi.

Ushbu musobaqada dunyoning eng yaxshi 50 nafar ayol va 50 nafar erkak sportchilari ishtirok etadi. Elita toifasidagi sportchilar standart/Olimpiya masofalarida (1500 metr masofaga suzish, 40 kilometr velosiped poygasi, 10 kilometr yugurish) kuch sinashadi. Shu kuni Osiyo kubogi doirasida O'rta Osiyo sportchilarini (SATA – Central Asia triathlon Association) alohida hisobda taqdirlash marosimi o'tkaziladi.

11-iyun kuni "Triatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati 2023, Samarqand" bo'lib o'tadi.

Unda Elite, U23 va U15 toifalari o'rtasida standart va super-sprint masofasida triatlon bo'yicha milliy va o'smirlar terma jamoasiga tanlov o'tkaziladi. Shuningdek, shu kuni 300 nafar havaskorlar (triatlonchi bo'lmagan) shaxsiy va jamoaviy testlarda qatnashadi. Ikki masofada: Olimpiya (1500 metr masofaga suzish, 40 kilometr velosiped poygasi, 10 kilometr yugurish) super-sprint (350 metr masofaga suzish, 13 kilometr velosiped poygasi, 3 kilometr yugurish) bellashuvlari tashkil etiladi.

Musobaqalar Samarqand eshkak eshish kanali hududida bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Triatlon federatsiyasi ushbu tadbirlarning asosiy tashkilotchisi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tadbir Sportni rivojlantirish vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi va Paralimpiya qo'mitasi ko'magida o'tkaziladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun: 90-194-85-22.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirnova notarial idorasida marhum Ikramov Axlyamga (2020-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 108-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Djabbarov Ibragimga (2020-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Sayidov Maqsud Aminjonovichga (2022-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

ABITURIYENTLAR DIQQATIGA!



SAMARQAND KALQARO TEKNOLOGIYA UNIVERSITETI HUJJATLAR QABULINI BOSHLADI

Hujjatlarni www.siut.uz sayti orqali topshirishingiz mumkin. Siz o'rta ta'limni bitirganlik haqidagi hujjatlarni olguningizga qadar o'zingiz tahsil olayotgan muassasaning (maktab, kollej yoki litsey) bitiruvchisi ekanligingizni tasdiqlovchi ma'lumotnomani tizimga yuklashingiz mumkin.

Telegram (http://t.me/siut_uz) **Facebook** (<https://facebook.com/siut.uz>) **Instagram** (<https://instagram.com/siut.uz>) **Sayt** (<http://www.siut.uz/>)

MUHANDISLIK:

- "Geologiya va geomuhandislik";
- "Konchilik ishi";
- "Kimyo muhandisligi";
- "Neft va gaz muhandisligi";
- "Axborot texnologiyalari".

TADBIRKORLIK:

- "Tadbirkorlik va menejment";
- "Xalqaro logistika".

XITOIY ENERGETIKA INSTITUTI:

- "Issiqlik energetikasi" (Xitoy oliy ta'lim dasturlari asosida).

KOREYA TEKNOLOGIYASI VA MADANIYATI KOLLEJI:

- "Yashil texnologiyalar" (qayta tiklanadigan energiya manbalari);
- "Dizayn";
- "Raqamli iqtisodiyot".

TA'LIM INGLIZ TILIDA OLIB BORILADI

+99855-705-50-05, +99897-575-48-29

murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Payariq tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Nodirov Berdiyoz Jabbariyevichga (2020-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Sayidov Maqsud Aminjonovichga (2022-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Roziqov Narziqul Hojiyevichga (2021-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Mirmuxamedov Maxmudjon Xalimovichga (2021-yil 20-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat

bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasida marhum Jalolov Kobilga (2021-yil 16-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

BEKOR QILINADI

Nurobod tumanidagi "ABDIRAYIMBOBO OLTINSOY DALALARI" fermer xo'jaligining (STIR: 304845868) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Tursunova Salomat Uroqovna (2019-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Mirmuxamedov Maxmudjon Xalimovichga (2021-yil 20-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat

bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasida marhum Jalolov Kobilga (2021-yil 16-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

BEKOR QILINADI

Nurobod tumanidagi "ABDIRAYIMBOBO OLTINSOY DALALARI" fermer xo'jaligining (STIR: 304845868) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



"Birinci Renessans allomalari"

o'quv qo'llanmasi chop etildi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Birinci Renessans allomalari" nomli o'quv qo'llanma taqdimoti bo'lib o'tdi.

"Birinci Renessans allomalari" o'quv qo'llanmasi uchta kitobdan iborat turkumning dastlabki hissiy qismini tashkil etadi. U Vatanimizning yangi tarixiga dastlabki chizgilar ekanligi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston zamini tarixida buyuk Uyg'onish davrlariga beshik bo'lgani, dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' mutafakkirlarni yetishtirib bergani qalamga olingan.

Biz nafaqat yurtimiz, balki dunyo tarixida Birinchi Renessans asoslarini yaratgan allomalarning nomi bilan faxrlanib qolmasdan ularga munosib voris bo'lishimiz, ularning asarlarini shunchaki sanamasdan hayoti va ilmiy merosini qunt bilan o'rganishimiz kerak, - dedi tadbirida "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarini bosh muharriri O'tkir Rahmatov. - Chunki intellektual rivojlangan jamiyat va davlat Uchinchi Renessans paydoyorini yanada mustahkam, ajdodlariga xos tarzda qo'ya oladi.

Shuningdek, universitetda "Milliy g'oya - millat uchun hayot-mamot masalasi" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Bugun ilgari surilayotgan milliy g'oya asosi sifatida ta'lim va samarali ilm-fanga qurilayotgani bejiz emas, albatta, - dedi universitet rektori Rustam Xolmurodov. - Bu jarayon sifatli ta'lim berish, millatning mudrab yotgan daholarini uyg'otish bilan amalga oshiriladi. Bunga jamiyatda insonning butun umr ilm olishi uchun barcha sharoitni yaratib berish, ma'rifatli davlat siyosatini yuritish, ongu shuuriga go'dakligidanoq ziyo olib kirish yordamida erishiladi.

Anjumanda universitet rektori, Oliy Majlis Senati a'zosi Rustam Xolmurodov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist O'tkir Rahmatga SamDU faxriy professori unvoni hamda "Samarqand davlat universitetining 600 yilligi" esdalik nishonini topshirdi.

Behro'z SHAMSIDDINOV, SamDU axborot xizmati xodimi.

Samarqand arxeologiya institutida Surxondaryo havzasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy natijalariga bag'ishlangan onlayn seminar bo'lib o'tdi.

Tadbirida Samarqand arxeologiya instituti va Xitoy Shimoli-G'arbiy universiteti arxeolog olimlari, mutaxassislar va yosh izlanuvchilar ishtirok etdi.

Seminarida Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida olib borilgan arxeologik qazuv ishlarida erishilgan muhim natijalar haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanishicha, O'zbekiston-Xitoy qo'shma ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan Shimoliy Baqtriya tog' etaklarida yashagan ko'chmanchi aholiga tegishli "Rabot" yodgorligida olib borilgan qazishma ishlari va dala arxeologik qiduruv jarayonida miloddan avvalgi I asrning ikkinchi yarmi va milodiy II asrning birinchi

Kushonlar va yuechjelar bitta xalqmi?

yarmiga oid qadimiy qabr qo'rg'onlari aniqlangan.

Ekspeditsiyamizning asosiy maqsadi Xitoy hududidan Markaziy Osiyoga, ya'ni o'sha vaqtdagi qadimgi Baqtriya hududiga kirib kelgan yuechjelarni o'rganish, - dedi Xitoy Shimoli-G'arbiy universiteti professori Van Szyan Sin. - Sababi, G'arb manbalarida yozilishicha, kushonlar yuechjelarning bir qismi, deyilgan. Bu qanchalar to'g'ri yo noto'g'ri ekanligini bilish maqsadida qazishma ishlari olib bordik. Avval Xitoy hududida Ganzu va Senjoy provinsiyasida o'rganish ishlari amalga oshirildi. Qadimgi manbalarida yozilishicha, yuechjelar xunlarning ta'sirida Xitoy hududini tark etib, O'rta Osiyoga kirib kelgan. Surxondaryo vohasidagi daryoda qazishma ishlari olib borilganida, u yerdan topilgan ma'lumotlarga tayanib aytishimiz mumkinki, kushonlar va yuechjelar



bir-biriga o'xshamaydigan alohida xalq, qabila, Xitoy hududidan kirib kelgan ko'chmanchilar. Kushonlar esa Yunon-Baqtriyaning keyingi avlodlari. G'arb manbalarida yozilishicha, miloddan avvalgi I asrda tashkil topgan kushonlar imperiyasiga yuechjelarning

keyingi avlodi asos solgan, deyishadi. Bizda bu ma'lumotning noto'g'riligini isbotlovchi dalillar mavjud. Bu paytda Surxondaryo vohasida kushonlar imperiyasi tashkil topgan va undan avvalroq tog'li hududning yaylov qismida yuechjelar yashagan. Surxondaryoning dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq aholisi Yunon-Baqtriyaning keyingi avlodlari. Yunon-Baqtriya va Kushon imperiyasi milodiy I asrda katta hududda tashkil topadi. Hozirgi O'zbekistonda janubidagi tog' hududida asosiy manzillari bo'lgan. Biz ekspeditsiyamizni davom ettirib, kushonlar va yuechjelarning alohidaligini isbotlovchi yana-da ko'proq ma'lumotlar topish hamda uni jamoatchilikka taqdim qilish niyatidamiz.

Seminar so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob oldi.

B.MUSTANOV.

"Buxori qishlog'i tarixi"



Samarqand tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabida tarixchi olim, dotsent Behzod To'raqulovning "Buxori qishlog'i tarixi" nomli kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Vatan tarixi oila va mahallalar o'tmishini o'rganishdan boshlanadi. O'zimiz yashayotgan hudud, o'lkamiz tarixini bilish o'zligimizni anglashning muhim omili hisoblanadi. Shundan bo'lsa kerak, keyingi yillarda alohida sulolalar, mahallalar tarixini o'rganish va bu yo'nalishda risolalar chop etish ommalashib bormoqda.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti B.To'raqulovning "Buxori qishlog'i tarixi" monografiyasi ana shunday foydali va kerakli nashrlar sirasiga kiradi. Unda Samarqand tumanidagi Buxori qishlog'i tarixi yoritilgan. Muallifning ta'kidlashicha, XVIII asrning oxirgi choragida Buxoro viloyatining Nometan qishlog'idan Samarqand shahrini tiklashga safarbar etilgan bir guruh quruvchilar shaharning g'ar-

biy chegarasiga tutash tashlandiq yerni o'zlashtirib, Buxori qishlog'iga asos solgan va ikki yarim asrdiki, bu hudud shu nom bilan atalib kelinadi.

Muallif kitobni yozish uchun ko'p izlangan, arxiv materiallari to'plagan, yoshi ulug'lar bilan suhbatlashgan, yillar davomida ma'rifatli mahalladoshlar yozib qoldirgan xotiralardan foydalanagan. Kezi kelganda, mahalliy aholi orasidagi rivoyatlarni ham chetlab o'tmagan. Natijada, mazmunan boy, kerakli kitob dunyoga kelgan.

Taqdimot marosimida so'zga chiqqan professorlar D.Jo'raqulova, Sh.G'afforov, G.Normurodova, shoir N.Karimzoda, tuman Xalq qabulxonasi rahbari I.Murodov va boshqalar nashrning aynan ana shu jihatlarga e'tibor qaratdilar.

Toshpo'lat RAHMATULLAYEV.

Qalbning naqshi

She'r - ko'ngilning mulki, deyishadi. Ammo yaxshi she'r faqat shoir ko'ngli mulkigina bo'lib qolmaydi. U she'r ixlosmandi qalbining naqshiga ham aylanadi. Yaqinda chop etilgan "Savti segoh" nazm to'plami ana shunday jamlanma bo'ldi.

Ushbu kitobni ustozlarning an'anasini davom ettirgan bugungi kun qalam ahlining irod mahsuli, deyish mumkin. Jamlanmadan el tanigan ijodkorlar Xosiyat Bobomurodova, Fazilat Abdullayeva hamda Elmurod Hotamning g'azallari o'rin olgan.


Unda har bir ijodkorning o'z yo'li, uslubi ko'zga tashlanadi. Masalan, kitobdagi "Bo'lsa" nomli g'azal shunday misralar bilan boshlanadi:

Quvonmoqqa shodliklaring, chekmoqqa g'aming bo'lsa, Seni inson deb kelganga mehru yordaming bo'lsa. Toyrilganni tepib o'tgan uzoq bormay toyrilur, Yoningda do'st cheksa ozor, ko'zingda naming bo'lsa.

O'quvchi g'azalda shoir Xosiyat Bobomurodovning baxshiyona uslubini tezda ilg'aydi. Shu bilan birga, bu misralar o'quvchini beixtiyor mumtoz she'riyat olamiga olib kiradi. Ushbu ijod namunalari kitobxonni o'ylashga, ko'ngilga mahzun tuyg'ular eltib, hayotdan zavqlanib yashashga chorlaydi.

Kitobdan g'azallar bilan yonma-yon mumtoz adabiyotning muxamas, bag'ishlov kabi namunalari ham joy olgan. Ta'kidlash lozimki, an'anaviy janrlarda qalam tebratish har qanday qalam ahliga ham nasib etavermaydi. Bu ijodkorga o'ziga yarasha bilim, iste'dod va shu bilan birga, mas'uliyat yuklaydi. Kitobni matolaa qilganda bunga to'la ishonch hosil qilasiz.

S.MARDIYEV.



Uning dardli qalbi ta'sirchan. Gohida mehordan jo'shib ketsa, ba'zida tushkun kayfiyatdan titrab turganini ilg'aysiz. Nima bo'lganda ham uning irodasi mustahkam, doim harakatda bo'lishga intiladi. "Duo qiling, mehribonlarim..." she'riy to'plamidan namunalari o'qir ekanisiz, yosh ijodkor Nilufar Hamroyeva bilan yuzma-yuz diydorlashgandek bo'lasiz.

She'r - Nilufarning hamrohi, dardkashi

Ijodkorning she'riy to'plamlari o'z o'quvchilarini topgan. U Vatan, do'stlik, sog'inch haqida to'qinlanib yozadi. Odamlar bilan diydorlashgisi, dilidagini to'kib solgisi, eng muhimi - ular davrasida bo'lgisi keladi.

- Xonadonimizga tuman hokimi Fazliddin Ro'ziyev kelganida ko'nglim tog'dek ko'tarildi, - deydi birinchi guruh nogironi bo'lgan N.Hamroyeva. - U kishi holimdan xabar olish asnosida ijodim bilan ham qiziqdi. Inson e'tibor va g'amxo'rlikdan ko'ngli tog'dek ko'tariladi, muhimi, hayotga intilishi, qiziqishi ortadi.

To'plamdan o'rin olgan she'r'larda Nilufarning quvonch va iztiroblariga guvoh bo'lasiz, hayotning sinovlariga bardoshli bo'lishni anglaysiz.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 685 nusxada chop etildi. Buyurtma 266. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.